


## Ni (II) TUZLARINI 2-(3-GIDROKSIPROPIL) BENZIMIDAZOL BILAN HOSIL QILGAN KOMPLEKSINI TERMIK TAXLIL YORDAMIDA O'RGANISH

Raxmonova D.S. (O'zMU), Ergasheva R.U.,  
Ergasheva Kamolot Ilyom qizi 4-kurs talabasi QarDU).

Koordinatsion birikmalar kimyosining jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri bu tarkibida azot, kislorod, oltinugurt tutgan geterohalqali ligandlar bilan biometallarning kompleks birikmalarini sintezi va xossalaringin tadqiqotidir. Olingan ma'lumotlar esa oldindan belgilangan ma'lum bir xususiyatlari, tarkib va tuzilishli hamda boshqa muhim xossali yangi kimyoviy moddalarni maqsadli yo'naltirilgan holda topish va ularni sintez qilish uchun muhimdir. Benzimidazol asosidagi fiziologik faol birikmalar molekulasida elektrofil va elektrofob reaksiyon markazlar bilan kuchli qutblangan guruhlar hosil bo'ldi va bu bilan ular biologik faoliyini namoyon etib, fermentlar yoki boshqa resertik hujayralarni o'rash olish uchun dastlabki reagent vazifasini o'tashi mumkin. Bularning hammasi ma'lum tuzilish va xususiyatlari metallokomplekslarni maqsadli sintez qilishga imkon beradi. Adabiyotlardan ma'lumki, tarkibida turli metallar tutgan koordinatsion birikmalari kam o'rganilgan [1-2]. Shu sababli, bu ish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, sintez qilingan koordinatsion birikmalarning elektron, stereokimyoviy, kinetik va termodinamik xossalari o'rganishga imkon beradi.

Kompleks birikmalarning termik barqarorligini termik analiz metodi yordamida o'rganildi. Moddalaring termik tadqiqotlari Netzsch Simultaneous Analyzer STA 409 PG (Germaniya) qurilmasida, K tipidagi termokuppli (Low RG Silver) va alyuminiy oksidili tigellarda o'tkazildi. Barcha o'chovlar azot oqim tezligi 50 ml / min bo'lgan inert azotli atmosferada o'tkazildi. O'chovlarning harorat diapazoni 20-600 °C, isitish tezligi 5 K / min. Bir o'chov uchun namuna miqdori 10-12 mg ni tashkil qiladi. O'chov tizimi  $\text{KNO}_3$ , In, Bi, Sn, Zn standart moddalar to'plami bilan sozlangan. Termoanalitik tadqiqotlar Termiz davlat universiteti ilmiy laboratoriyasida o'tkazildi. TGA natijalariga ko'ra, yangi metal kompleks harorat ko'tarilishi bilan turli funksional guruhlarning parchalanishi natijasida, massa o'zgarganda kuzatiladigan turli ekzotermik va endotermik ta'sirlar tahlil qilindi. Termik tahlilining barcha namunalari dinamik rejimda 50 gradus/min tezlikda alyuminiy oksididan tayyorlangan hovonchada olib borildi. KFA ning (TGA) va (DTA) analizi uchun maksimal 600°C harorat tanlab olinib, ushbu moddaning tahlil natijalari keltirilgan termogravimetrik (TGA) va differensial termo (DTA) analiz natijalariga qarab o'rganib chiqildi. Ushbu modda 600 °C haroratga chidamli alyuminiy oksididan tayyorlangan og'zi ochiq tigelda 3,5 mg miqdorda olinib, 20°C haroratdan boshlab asta-sekin harorat ko'tarilib borildi.(1-rasm)



1-rasm. Ni(L)<sub>2</sub>·4H<sub>2</sub>O ning termogravimetrik (TGA) va differensial termo analizi (DTA) TGA-DTA grafigidan ko'rish mumkinki, ligandning 86,36-500,46 °C haroratlar oralig'iда 1 ta endotermik va 2 ta ekzotermik effekti kuzatildi.

Tahillardan ko'rish mumkinki, dastlabki endotermik effekt 59,40-213,49 °C haroratlar oralig'ida kompleksning erishi bilan kuzatilib, Parchalanish 97,27 °C da boshlanib, 173,07 °C da yakunlandi. Parchalanish effekt cho'qqisi 5,92 daqiqadan so'ng 139,81 °C haroratda kuzatildi. Ekzotermik parchalanish 311,93 – 360,93 °C haroratlar oralig'ida kuzatilib, Parchalanish cho'qqisi 15,03 daqiqadan so'ng 332,47 °C haroratda kuzatildi. Ikkinchchi ekzotermik effekt 363,26-500,46°C haroratlar oralig'ida kuzatilib, ekzotermik cho'qqi 18,25 daqiqadan so'ng 399,21°C haroratdaligi o'rzanildi. Parchalanishning umumiy entalpiyasi  $\Delta Q = -1057,92 \text{ J/g}$ , ga teng, Ni(L)<sub>2</sub>4H<sub>2</sub>O ning termogravimetrik egri chizig'i tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA-egri chizig'i asosan 2 ta intensiv massa yo'qotiladigan harorat oralig'da amalga oshadi. 1-massa yo'qotiladigan oraliq 50-86,36 °C haroratga 2- massa yo'qotiladigan oraliq 86,36-413,24°C haroratlarga mos keladi. Tahillar shuni ko'rsatadiki, 1-massa yo'qotiladigan oraliqda massa yo'qotilishi 0,928 mg ya'ni 26,514 % kuzatilgan bo'lsa, 2- massa yo'qotiladigan oraliqda 2 ta intensiv parchalanish jarayoni hosil bo'ladi. Bu oraliqda massa yo'qotilishining asosiy miqdori 1,076 mg y'ani 30,743 % ni tashkil etadi. Umumiy massa yo'qotilish 2,004 mg ya'ni 57,257%.

Ni (II) va 2-(3-gidroksipropil)benzimidazol ligandi asosida olingan kompleksning differensial skanerlash kalorimetriyasi yordamida olingan termik tahlil ma'lumotlariga ko'ra 1 ta endotermik va 2 ta ekzotermik effektlar kuzatildi va sintez qilingan kompleksning 86 °C haroratgacha termik barqarorligi aniqlandi va 2-(3-gidroksipropil)benzimidazol komplekslarini nekil asetat bilan sintez qilish usuli ishlab chiqildi va sintezlangan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishi fizikkimyoviy tadqiqotlar yordamida o'rzanildi. 2-(3-gidroksipropil)benzimidazolning nekil asetat bilan birlashtirilganda 1:2 nisbatda termik barqarorligi aniqlandi. Sintez qilingan komplekslarning tuzilishi metallning tabiatiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

### Foydalingan adabiyotlar

1. Raxmonova D.S., Kadirova Z.Ch., Kadirova Sh.A., Parpiev N.A., Jo'raqulova N.X. Co(II) va Cu(II) larning 2-amino-1-metilbenzimidazol bilan aralash metalli kompleks birikmalarini sintezi va tadqiqoti // Kimyo va kimyo texnologiyasi. 2015 y. №1. 40-42 bet.
2. Якубов Э.Ш., Тожиев С.М., Шокиров Ж.Н., Умарова С.Р. Координационные соединения кобальта(II), меди(II) и цинка с 2-аминохиназолоном-4. UNIVERSUM: ХИМИЯ И БИОЛОГИЯ Учредитель и издатель: ООО «МЦНО» Выпуск: 5(95) Май. Москва-2022. Стр.66-70.



